




Xorazm viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2019 yil yanvar-mart)


Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 495,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2018 yilga nisbatan 90,7 foizga ko'paydi.




2019 yil yanvar-martda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

	<i>mlrd.so 'm</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz</i>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	495,7	90,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	92,0	153,3	18,6
byudjet mablag'lari	56,8	235,6	11,5
davlat maqsadli fond mablag'lari	4,6	0,0	0,9
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	0,0	0,0	0,0
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	30,6	110,9	6,2
Markazlashmagan investitsiyalar:	403,7	84,1	81,4
korxonalarining o'z mablag'lari	85,1	82,3	17,2
aholi mablag'lari	171,7	83,7	34,6
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlari	15,3	522,1	3,1
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	123,6	74,9	24,9


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari (2019 yil yanvar-mart)




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari



2019 yil yanvar - mart oylarida shahar va tumanlar kesimida o'zlashtirilgan investitsiya (mlrd.so'm)




2019 yil yanvar - mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar(o'sish sur'ati)




Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2019 yilda 269,7 ming so'm yoki 89,1 foizni tashkil etdi.

**2019 yil aholi jon boshiga hisoblangan
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(ming so'm)**



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida 1171,2 ming so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 220,0 foiz), Shovot va Yangibozor tumanlarida mos ravishda 136,9 ming so'm (41,0 foiz) va 355,9 ming so'm (80,0 foiz) qayd qilindi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga
kiritilgan investitsiyalar hajmi**



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 59,0 foizdan ortig'i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltirildi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,2 foiz), ishlab chiqarish sanoati (13,5 foiz) va jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar (27,3 foiz).

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2019 yilning yanvar – mart oylarida 54,0 mlrd.so'm (dollar ekvivalentida 6,4 mln.AQSH doll) yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 157,8 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.


Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahrida (57,8 %), Qo'shko'pir tumanida (23,3 %), Xonqa tumanida 13,7 % kuzatildi.

Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish,

	<i>Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirildi, mlrd.so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiyalar, nisbatan % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar</i>	<i>jamiga</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar</i>
Xorazm viloyati	54,0	37,2	100,0	10,9
<i>shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	31,2	30,6	57,8	6,3
Xiva sh.	-	-	-	-
Bog'ot	-	-	-	-
Gurlan	-	-	-	-
Qo'shko'pir	12,6	-	23,3	2,5
Urganch	2,8	-	5,2	0,6
Xazorasp	-	-	-	-
Xonqa	7,4	6,5	13,7	1,5
Xiva	-	-	-	-
Shovot	-	-	-	-
Yangiariq	-	-	-	-
Yangibozor	-	-	-	-


Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 10,9 foizni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd.so'm)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni 56,7 foizi, yani 30,6 mlrd.so'm (3,7 mln.AQSH doll) O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar, 43,3 foizi xorijiy investitsiyalar 23,3 mlrd.so'm (2,8 mln.AQSH doll), shundan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 15,3 mlrd.so'm (1,8 mln.AQSH doll)ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (jami hajmga nisbatan foizda)



Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Sh.Babajanov
Telefon: (0362) 224-65-22